

POLAND

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**

SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH

 **30 JANUARY
2025 YEAR**

POLAND, WARSAW



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH

International scientific-online conference

Part 29

January 30th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

WARSAW 2025



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific online conference (30th January, 2025) – Poland, Warsaw : "CESS", 2025. Part 29–335p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, o'zbek, polish, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH** ". Which took place in Warsaw on January 30, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025

<i>MINTAQADA ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISH MANBAALARI VA MEXANIZMLARI JORIY QILISHNING IQTISODIY TAXLILI</i>	
Sadokat Rakhmonkulovna Chinmirzaeva <i>PREVENTION OF INJURIES IN HUMAN AGING</i>	316
Muptillaeva Naubaxar Nurabulla kizi <i>KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI</i>	324
Yusufov Hakim Olim o'g'li Mardiyev Abdumumin Abdumajitovich Ibragimov Hasan Eshpulatovich <i>ПОРИСТОСТЬ АСФАЛЬТОБЕТОНА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГ</i> <i>УВЕЛИЧЕНИЕ ПРОЧНОСТИ ЗА СЧЕТ УМЕНЬШЕНИЯ</i>	332
To'xtasinov Sherzodbek Shuxratbek o'g'li <i>BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARIDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	336
Ibroximova Ruxshona Raxmatjon Qizi Yusufova Shaxlo Rasuljon Qizi <i>OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATINING KASALLIKLARI</i>	338
Хамрокулова Ганжина Шомурадова Ширин <i>МАКРОАНГИОПАТИЯ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ</i>	341
Шакирова Вазира Вафохходжаева Ханзодабегим <i>АКРОМЕГАЛИЯ И ГИГАНТИЗМ</i>	346
Shoazizova Shamsiya Furqat qizi <i>МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA HARAKATLI O'YINLARNI QO'LLASH ORQALI JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASH XUSUSIYATLARI</i>	350
Шахакимова Азиза Алимджановна Хасанов Сodikжон Олим сын Юнусова Муслима Шерзод кизи <i>ПРАВО ПОЛЬЗОВАНИЕ ЗЕМЛЕЙ, ЕГО ПОРЯДОК ПОЛУЧЕНИЯ И ОТКАЗА</i>	355
Sharipova Zebiniso Furqat qizi Salimova Aziza To'lqin qizi <i>POLITEXNIKUMLARDA O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TECHNOLOGIYALARI FANIGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI</i>	359
Nurova Madinabonu Salim qizi Ro'ziyeva Feruza Razzoqovna <i>TA'LIMDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING O'RNII</i>	362
Yarmuhammedov Jasur Mansurovich Sadullayeva Jasmina Sherali qizi	365



Norova Shaxnoza Shofiddin qizi

DORIVOR CALENDULA OFFICINALIS L. O'SIMLIGINING BUXORO VILOYAT SHAROITIDA YETISHTRISH TEXNOLOGIYASI HAMDA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Turayeva Sevara Baxtiyarovna

370

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN AQLI ZAIF BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB INTERNATIDA O'QUVCHILAR BILAN DIDAKTIK O'YINLARNING HUSUSIYATI.

УДК: УДК 582.3.522.4:

**DORIVOR *CALENDULA OFFICINALIS* L. O'SIMLIGINING BUXORO
VILOYAT SHAROITIDA YETISHTRISH TEXNOLOGIYASI HAMDA DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI**

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi
Yarmuhammedov Jasur Mansurovich
Buxoro davlat universiteti, talaba
Sadullayeva Jasmina Sherali qizi
Norova Shaxnoza Shofiddin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor (*Calendula officinalis* L.) ni Buxoro viloyati sharoitida yetishtirish texnologiyasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tirnoqgul o'simligi urug'larining unuvchanligi laboratoriya va dala sharoitida amalga oshirilgan. Laboratoriyada sharoitida urug' unuvchanligi 88-92% dala tajribasida 81-82% bo'lishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Tirnoqgul, rasmiy tibbiyot, urug'li meva, antispazmodik.

KIRISH

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) - Bo'yi 20,0-75,0 sm ga yetuvchi bir yillik o'simlik. Ushbu o'simlikning vatani Janubiy Yevropa va Kichik Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. Dorivor tirnoqgul yorug'savar o'simlik bo'lib, o'rtacha nam va unumdor tuproqlarni xush ko'radi. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan. Ildizlari o'q ildiz tizimini hosil qiladi. Barglari teskari tuxumsimon, tukli, yuqori qismidagi barglari bandsiz, tuxumsimon, pastki qismidagi barglari poyada bandi bilan ketma-ket holatda joylashgan. Gullari yirik, sariq rangli, savatcha to'pgulga yig'ilgan. Savatchada 2-3 qatordan 15 qatorgacha tilsimon gullar, yuqori qismida esa 2-3 qator naysimon gullar joylashgan. Mevalari turli shakl va o'lchamdagi pista meva. O'simlik iyun oyidan kech kuzgacha gullaydi. Mevalari iyul-sentyabr oylarida pishib yetiladi. Dorivor tirnoqgul xalq tabobatida, rasmiy tibbiyotda va farmasevtika sanoatida hamda manzarali o'simlik sifatida ishlatiladi. O'simlik erta bahorda yoki kech kuzda urug'laridan ko'paytiriladi. Yoz faslining qisqa muddatli qurg'oqchil iqlimiga va tuproqning qisqa muddatli qurishiga (ildiz tizimi yaxshi rivojlangan va tarkibida polisaxaridlar saqlaganligi sababli) bardosh bera oladi. Dorivor tirnoqgul tuproqqa talabchan. Ushbu o'simlikni respublikamizning barcha tuproqlarida o'stirish mumkin. Faqat kuchli va o'ta kuchli sho'rlangan hamda botqoqlashgan tuproqlarda o'smaydi. Tabiblar undan siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan, terlatadigan dori sifatida foydalanishgan. Badanning dog' tushgan joylari, gush kasalligi, mastitni davolashda shu o'simlikdan foydalanishgan. Bundan tashqari tirnoqgulni gepatit, xoletsistit, me'da yara kasalligi, gipertoniya, siydik-tosh kasalliklarini ham davolashda ishlatishgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklari, og'iz elikishini davolash uchun tirnoqguldan tayyorlanadigan har xil dorilar buyurilgan. Ibn Sino ham tirnoqgulni kal kasalligi, belangini davolashda ishlatgan, ilon, chayon chaqqanda buyurgan. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara jarohatlarini bitiradigan, terlatadigan vosita sifatida keng qo'llanilgan. Hind

tabobatida uni quvvatga kirgizadigan, tetiklashtiradigan dori sifatida buyurilgan. Umuman olganda, bu kuchli vosita:

- dezinfektsiyalash va antiseptik;
- yallig'lanishni yengillashtiradi;
- antispazmodik;
- diuretik va xoleretik ta'sirga ega;
- og'riq qoldiruvchi;
- qon va terini tozalash;

Dori tayyorlash va ishlatish. 1. 2 choy qoshiq miqdordagi tirnoqgul gullari ustiga 2 stakan qaynoq suv quyib, 15 daqiqa damlab qo'yiladi, keyin suzib olinib, yarim stakandan kuniga 3-4 maxal ichiladi.

2. Bu o'simlik gullaridan 2 osh qoshiq miqdorda olib, ustiga 2 stakan qaynoq suv quyiladi va 3-4 soat damlab qo'yib, keyin suzib olinadi. Ovqat oldidan yarim stakan kuniga 3-4 maxal ichiladi.

3. O'simlikning 1 osh qoshiq mayda yanchilgan gullari ustiga 1 stakan aroq quyib, 7 kun saqlanadi, keyin suzib olinadi va 25-30 tomchidan kuniga 3 maxal ichiladi. Bu tinikturaning 1 choy qoshig'ini 1 stakan qaynagan suvga aralashtirib, yara jaroxatlarni yuvish, chayish uchun ishlatish ham mumkun.

4. Mayda kukun qilib yanchilgan o'simlik gullaridan 1 choy qoshiq miqdorida olib 15 g miqdordagi vazelinga obdan qorishtiriladigan va badanning kasal joylariga surtish uchun ishlatiladi.

Kalendula malhami kuyish va boshqa terining shikastlanishlarini davolashda mashhur xisoblanadi. Tinkturasi, damlamalari va surtmasi jaroxatlarda, yiringli yaralarni davolashda, tomoq chayishda, oshqozon yarasini xamda gastrit va jigar xastaligini davolashda ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi [1].

Tadqiqot obekti va uslubiyati.

Tadqiqot obekti sifatida Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligi olindi. Tadqiqotlar davomida tirnoqgul o'simligini Buxoro Viloyati sharoitida yetishtirish texnologiyasi o'rganildi. Tadqiqotlar davomida laboratoriya va dala tajribalari, fenologik, morfologik, biometric, ekologik va statistik uslublardan foydalanildi. Biometrik o'lchov va tahlillar umumqabul qilingan uslublar Borisova, Beydeman I.N. [2] Паномарев, Зайцев G.N. [3] Яраш, Терехин va .b. hamda davlat standartlari bo'yich amalga oshirildi. Tajribalar Buxoro davlat universiteti hamda Vobkent tumanida amalga oshirildi.

Tajriba va natijalar:

Tajribalar laboratoriya sharoitida amalga oshirildi. Dastlab o'simlik urug'lari saralanib, 50 donadan petri idishlariga joylashtirildi. Nazorat variant sifatida tanlangan idishga oddiy suv urug' ustiga purkalib, 24⁰ C haroratni ta'minlagan holda Termostatga joylashtirildi.



1-rasm. Laboratoriya sharoitida Tirnoqgul urug'larining unuvchanligi .

1-jadval

	Kuni.	Nazorat (suv) %
	2-kun	-
	4-kun	8 %
	6-kun	20 %
	8-kun	48 %
	10-kun	72 %


Dala sharoitida birinchi qilingan ish tuproqqa biogomus bilan ishlov berildi. So'ngra chizg'ich bilan 2-2,5 sm tuproqni o'lchash orqali chuqurchalarga 1 tadan urug' ekildi va urug' ustiga tuproq bilan yengil ishlov berildi. Urug'larning ekilgan sanasi 23.09.2024 yil 09:00 da . Urug' ekilgandan so'ng harorat 20, 24 C ekanligi aniqlandi va havo harorati issiq bo'lganligi uchun urug'lar 29.09.2024yil 19:29 da xabar olinganda urug' nish ungani kuzatildi.



2-rasm. Dala sharoitida Tirnoqgul o'simligini o'sib rivojlanganligi

Urug'lar yaxshi o'sib rivojlanish uchun havo harorati va quyosh nuri yaxshi bo'lganligi hisobiga urug'lar holati 1.10.2024 holatiga ko'ra urug'larning 7 tasi nish ungani kuzatildi va bu kuzatishdan tashqari birinchi chiqqan urug'imizning pallabarg hosil qilganini ko'rish mumkin.

2 oktabr soat 06:29 holatiga ko'ra ungan urug'lar soni 15 tadan ortganini kuzatdik va o'rtacha o'sgan urug'larning uzunliklari o'lchandik.



3-rasm. Dala sharoitida Tirnoqgul o'simligini o'sib rivojlanganligi

Urug'lar yana kuzatib borildi 3-oktabr 07:04 holatiga ko'ra urug'larning unuvchanligi 90% dan oshgani va birinchida ungan urug'larda barg hosil bo'lganini ko'rish mumkin.

2-jadval

Sana	Ungan urug'lar soni	Ungan urug'larning % miqdori
23.09.2024	Urug'lar 2-2,5 sm chuqurlikka ekildi.	----
29.09.2024	1 ta urug' undi	5%
1.10.2024	8 ta urug' undi	40%
2.10.2024	16 ta urug' undi	80%
3.10.2024	18 ta urug' undi	90%

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada dorivor (*Calendula officinalis* L.) ni Buxoro viloyati sharoitida yetishtirish texnologiyasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, tirnoqgul o'simligi urug'larining unuvchanligi laboratoriya va dala sharoitida amalga oshirildi. Laboratoriyada sharoitida urug' unuvchanligi 88-92%, dala tajribasida 81-82% bo'lishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4901-sonli qarori. – Toshkent, 2020.

2. Байдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука 1974.-С.154.

3. Зайцев Г.Н. Обработка результатов фенологических наблюдений в ботанических садах//Бюл.бот.сада.1974.Вып.94,-С.3-10.

4. Yarmuhammedov, J. (2023). SAMARQAND BO 'ZNOCH (*HELICHRYSUM MARACANDICUM* POPOV EX KIPR.) YETISTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI. ILMIY NASHARLAR MARKAZI (*buxdu.uz*), 42 (42).

5. Mansurovich, Y. J. (2024). EFIR MOYI, FLOVONOID VA SAPONIN SAQLOVCHI DORIVOR O'SIMLIKLARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. *FANDA INNOVATION yutuqlari* 2024 , 3 (33), 109-112.
6. Yarmuhammedov, J. (2023). AERVA LANATA JUSS. NI BUXORO VILOYATI SHAROITIDA UNIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHINI O'RGANISH. *ILMIY NASHARLAR MARKAZI (buxdu.uz)* , 43 (43).
7. Yarmuhammedov, J. (2023). STACHYS BETONICAE FLORANING BIOLOGIYASI, GULLANISHI VA Urug'lik mahsuldorligi. *ILMIY NASHARLAR MARKAZI (buxdu.uz)* , 44 (44).
8. Qahhor o'g'li, Q. N., Rafoilovich, U. O., Tolibovich, Y. L., & Mansurovich, Y. J. (2024). SUG'ORMA QUM CHO'L TUVROQLARINING SHORLANISH REJIMI. *ILMIY TADQIQOTLAR, ZAMONAVIY QARASHLAR VA INNOVATSIYALAR JURNALI* , 1 (2), 104-107.
9. Yarmuhammedov, J. M., Norova, S. S., & Dilmurotova, A. (2024). BIR YILLIK DORIVOR O'SIMLIKLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA ISHLATILISHI. *FANDA INNOVATION yutuqlari* 2024 , 3 (33), 18-22.
10. O'Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti Toshkent – 2018.